



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 23-sentabr

VII-14-104-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

Kattaqo‘rg‘on tumani Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi boshlig‘i U.Sag‘dullayev tomonidan 2025-yil davomida amalga oshirgan ishlari hamda kelgusida bajariladigan vazifalari yuzasidan hisoboti to‘g‘risida

Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida Qonuni ijrosini ta‘minlash, O‘zbekiston Liberal Demokratik Partiyasi Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashi guruhi deputatlarining taklif va fikr mulohazalarini inobatga olib, tuman Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi boshlig‘i U.Sag‘dullayevning “2025-yil davomida amalga oshirgan ishlari hamda kelgusida bajariladigan vazifalari to‘g‘risida”gi hisobotini muhokama etib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, o‘n to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Kattaqo‘rg‘on tumani Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi boshlig‘i U.Sag‘dullayevning “2025-yil davomida amalga oshirgan ishlari hamda kelgusida bajariladigan vazifalari to‘g‘risida”gi hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kattaqo‘rg‘on tumani Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi (U.Sag‘dullayev) va Kattaqo‘rg‘on tumani Tibbiyot birlashmasi (V.Xudoyqulov)ga:

- Kattaqo‘rg‘on tumanida o‘ta xavfli boshqa yuqumli kasalliklar infeksiyasi tarqalishining oldini olish, aholiga profilaktik va epidemiyaga qarshi kechiktirib bo‘lmaydigan zaruriy tadbirlarni amalga oshirish;

- tumanda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining tibbiy madaniyatini oshirish va tibbiy profilaktika bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularning amalga oshirilishini ta‘minlash;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya qilinishi bo‘yicha belgilangan tartibda targ‘ibot va tushuntirish ishlarini olib borish;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan umumiy ovqatlanish obyektlarida ratsional va xavfsiz ovqatlanish tashkil etilishi ustidan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarining bajarilishini belgilangan tartibda nazorat qilish;

- yuqumli bo'lmagan, yuqumli, parazitlar kasalliklar yuzaga kirib kelishi va tarqalishining oldini olishga qaratilgan epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiyenik tadbirlarni amalga oshirish;

- hududda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, barcha ijtimoiy guruhlarini qamrab olgan holda fuqarolarni sanitariya-gigiyenik o'qitish va tarbiyalashni tashkil etishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali aholining sanitariya madaniyati darajasini oshirish;

- Kattaqo'rg'on tumanida joylashgan dehqon bozorlari hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning sanitariya holatini yaxshilash, aholi o'rtasida "ovqatdan ommaviy zaharlanish" va "botulizm" holatlarini hamda o'tkir yuqumli ichak kasalliklarining oldini olish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarni kuchaytirish va nazoratga olinishini ta'minlash;

- muddati o'tgan, iste'molga yaroqsizligi aniqlangan oziq-ovqat mahsulotlarini zudlik bilan savdodan chetlashtirish va tegishli tartibda yo'q qilish;

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni sog'lom ovqatlanishini tashkil qilish bo'yicha maktab direktorlari bilan hamkorlikda ishni tashkil qilish va sanitariya meyyor qoidalariga javob bermaydigan bufetlar bilan shartnomalarni bekor qilish bo'yicha tavsiyalar berish;

- tadbirkorlarga sanitariya qonunchiligi doirasida mahorat darslarini o'tish, ularni sanitariya qoidalariga va meyyorlariga rioya qilishlarini ta'minlash borasida uchrashuvlar tashkil etib borish;

- tuman aholisi o'rtasida brusellyoz kasalligi bo'yicha noxush epizootik va epidemiologik holat yuzasidan targ'ibot-tashviqot ishlari olib borish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman hokimi o'rinbosarlari (M.Rasulov, O.Shirinov) Kattaqo'rg'on tumani Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi boshlig'i U.Sag'dullayev bilan birgalikda hududning sanitariya-epidemiologik holatini yaxshilashga va tozaligini saqlashga, aholining sanitariya madaniyati darajasini oshirish yuzasidan tegishli tashviqot va targ'ibot ishlari olib borsin.

4. "Kattaqo'rg'on kecha va bugun" gazetasi muharriri (O'.Usmonov) Kattaqo'rg'on tumani hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (J.Safarov)larga sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi ta'minlashga qaratilgan targ'ibot materiallarni ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (D.Mirzaxonova) hamda tuman hokimi o'rinbosari O.Shirinov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH